Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan paraarmrestlingchi talabalarni musobaqa oldidan texnik tayyorgarligini takomillashtirish	617
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Developing Critical Reading Skills Through Content-Based Instruction.....	621
<i>Mekhmonkulov Burkhon Ma'ruf ugli</i>	
Tog'li va shahar hududida ta'lim oluvchi tinglovchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini taqqoslash	626
<i>Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Korxonada va tashkilotlarda ishchi-xodimlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish asosida ish faolligini oshirish texnologiyasi	630
	Muxametov Axmad Muxametovich	
	Xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining xalqaro baholash tizimini O'zbekiston ta'limiga moslashtirishdagi o'rni ...	634
	Namazova Manzura Urakovna, Nodirov Dilmurod	
	Digital Reading vs. Print Reading: Effects on EFL Learners' Reading Speed and Understanding	639
	Rustambekova Ozoda Dilshod kizi	
	Yoshlarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini oshirishning samarali usullari	644
	To'rayev Farrux Hakim o'g'li	
	Oliy ta'lim muassasalaridagi talaba-qizlarni dzyudo sport turi texnik harakatlariga o'rgatish texnologiyasi	647
	Toshboyeva Munisa Bozor qizi	
	Sport mashg'ulotlarda jarohatlarning oldini olish va xavfsizlik choralarini	650
	Xudoyberdiyeva Elmira Botir qizi	
	Задачи изучения и преподавания русского языка и литературы в общеобразовательных школах с узбекским языком обучения	654
	Ахмедов Нумон	
	Multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish	658
	Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Rahmonov Ziyodillo Xusanovich	
	Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi (immitativ-taqiidiy usul misolida)	661
	Jo'rayeva Dilafuz Nuriddinova	
	O'simliklarning issiqqa va qurqoqchilikka chidamliligi	664
	M. Nazarov, G. Maxsudova, T. Usmonova	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik jarayonlar ko'rsatkichlarining tahlili	667
	Masharipova Miyassar Ichanovna	
	Bo'lajak tarbiyachilarni "Tabiat bilan tanishtirish" fani asosida tarbiyaviy faoliyatini raqamlashtirish	675
	Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi	
	Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlash muammolari	678
	Shaxnoza To'xtiyarova	
	Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	681
	Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
	Umumta'lim maktablarining 9-sinf fizika darslarida tovush hodisasini anglashni tajriba orqali rivojlantirish	684
	Sobirov Avazbek Anvarovich	
	Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari	689
	Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi	
	Portret janrini o'qitishda individual ta'lim va fanlararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari	693
	Xudaynazarova Ug'iloy Sharifovna	
	Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	696
	Xudoyberdiyeva Ra'no Arabboyevna	
	Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash metodikasi (tarbiya fani misolida)	700
	Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna	
	Chizmachilik fanining turmush tarzimidagi ahamiyati va o'rni	704
	Achilov Nurbek Norboy o'g'li	
	O'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqtirishda musiqa psixologiyasining roli	707
	E'zozxon Qobilova	
	Bolalar adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari	710
	G'aniyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Madinaxon Madaminjon qizi	
	Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlarni til kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tahlil qilish	713
	G'anijonova Sarvinov, Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna	
	O'quvchilarda global o'qish savodxonligini shakllantirishda milliy matnlar va qadriyatlar asosidagi pirls tipidagi topshiriqlar yaratish tajribasi	717
	Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi	



Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
Karriyeva Lobarxon Fayzulla qizi	
Ilmiy matn o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
Komilova Lola Nasilloevna	
Dizariyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
Mamatova Muzayyana Batirovna	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
Munisa Shavkatova	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
Nazarov Nursultan Safarbayevich	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
Qobilova Aziza Tursunovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
Salimova Aziza Sharipovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi ko'xlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПП	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyarovna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	



BO'LAJAK TARBIYACHILARNI "TABIAT BILAN TANISHTIRISH" FANI ASOSIDA TARBIYAVIY FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH

Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi
 Andijon davlat pedagogika instituti
 Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi ta'sirida tubdan o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda raqamlashtirish ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligida muhim o'rin egallamoqda. Ayniqsa, "Tabiat bilan tanishtirish" fani kontekstida raqamli vositalardan foydalanish bolalarda tabiatga bo'lgan qiziqishni oshiradi, ularning kuzatuvchanligi, tahliliy fikrlashi va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Raqamli interaktiv doskalar, multimediali o'quv modullari, planshetlar hamda virtual laboratoriyalar yordamida mashg'ulotlarni interfaol tashkil etish tarbiyachilarga yangi pedagogik imkoniyatlar yaratadi.

Kalit so'zlar: bo'lajak tarbiyachilar, maktabgacha ta'lim, tabiat bilan tanishtirish, raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, interfaol ta'lim, AKT, raqamli kompetensiya, innovatsion pedagogika, multimediali o'quv modullari, interaktiv doska, ekologik tarbiya.

Abstract: The modern preschool education system is undergoing fundamental changes under the influence of the rapid development of digital technologies. Today, digitalization has become an integral part of the educational process and plays an important role in the professional training of future educators. Especially in the context of the subject "Introduction to Nature," the use of digital tools increases children's interest in nature and develops their observation, analytical, and creative thinking skills. Interactive organization of classes through digital interactive whiteboards, multimedia educational modules, tablets, and virtual laboratories provides new pedagogical opportunities for educators.

Key words: future educators, preschool education, introduction to nature, digitalization, digital technologies, interactive education, ICT, digital competence, innovative pedagogy, multimedia educational modules, interactive whiteboard, environmental education.

Аннотация: Современная система дошкольного образования кардинально меняется под влиянием стремительного развития цифровых технологий. Сегодня цифровизация стала неотъемлемой частью образовательного процесса и занимает важное место в профессиональной подготовке будущих педагогов. Особенно в контексте дисциплины "Знакомство с природой" использование цифровых инструментов повышает интерес детей к природе, развивает их наблюдательность, аналитическое и творческое мышление. Интерактивная организация занятий с использованием цифровых интерактивных досок, мультимедийных образовательных модулей, планшетов и виртуальных лабораторий создаёт новые педагогические возможности для воспитателей.

Ключевые слова: будущие воспитатели, дошкольное образование, знакомство с природой, цифровизация, цифровые технологии, интерактивное обучение, ИКТ, цифровая компетентность, инновационная педагогика, мультимедийные образовательные модули, интерактивная доска, экологическое воспитание.

KIRISH

Zamonaviy maktabgacha ta'lim raqamli texnologiyalar ta'sirida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, so'nggi besh yil ichida raqamli texnologiyalar joriy etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2 barobarga oshgan. 2018-yilda bu kabi texnologiyalar bilan jihozlangan bog'chalar soni 820 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ularning soni 1650 taga yetgan. Bu esa o'z navbatida bolalarni interfaol va zamonaviy metodlar asosida tarbiyalash imkoniyatlarini kengaytirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirda har uchinchi maktabgacha ta'lim tashkilotida raqamli interaktiv doskalar, multimediali o'quv modullari hamda bolalar uchun moslashtirilgan planshetlar mavjud. Ular, xususan, "Tabiat bilan tanishish" kabi fanlarni o'qitishda keng qo'llanilmoqda. Mashg'ulot jarayonini raqamlashtirish, ayniqsa "Tabiat bilan tanishish" fani kontekstida, bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Raqamli vositalarning ta'lim faoliyatiga integratsiyalashuvi o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi, uni maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yanada interaktiv va qulay qiladi. Bo'lajak tarbiyachilar bolalar bilan samarali muloqot qilish, ularning atrof-muhitga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va tabiat haqidagi bilimlarni vizual hamda hissiy tajriba orqali yetkazish uchun zamonaviy texnologiyalarni faol qo'llay olishlari lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Tabiat bilan tanishtirish" fanining maktabgacha ta'limdagi ahamiyati. "Tabiat bilan tanishtirish" fani bolalarda tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish, ekologik madaniyat va tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Tabiatni o'rganish orqali bolalar ekotizimdagi o'zaro aloqalar, tabiiy muvozanat va atrof-muhitni asrash zaruriyatini anglaydilar. Bo'lajak tarbiyachilar esa bu jarayonda nafaqat tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarga, balki ularni bolalarga tushunarli, qiziqarli va hissiy jihatdan ta'sirchan tarzda yetkazish mahoratiga ega bo'lishlari kerak. "Tabiat bilan tanishish" fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni. Raqamli texnologiyalar "Tabiat bilan tanishish" fanining mazmuni va metodikasini boyitish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Interfaol ilovalar, multimedia taqdimotlari, virtual sayohatlar va boshqa raqamli resurslardan foydalanish o'quv jarayonini yanada vizual, interaktiv va qiziqarli qiladi. Bunday vositalar bolalarning kognitiv rivojlanishiga yordam berib, ularning tabiatni idrok etish, kuzatish va tahlil qilish qobiliyatlarini kuchaytiradi.

Raqamli vositalar va texnologiyalarni amaliy tatbiq etish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda qo'llaniladigan eng samarali raqamli vositalar qatoriga interfaol doskalar, o'quv dasturlari bilan jihozlangan planshetlar, raqamli mikroskopl va multimedia qum qutilari kiradi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yilgi monitoring hisobotiga ko'ra, ushbu vositalardan foydalanish bolalarning amaliy faoliyatini sezilarli darajada faollashtirmoqda. Masalan, raqamli mikroskopl yordamida bolalar barg, gul yoki hasharotlarning tuzilishini ko'zdan kechirish orqali kuzatuvchanlikni rivojlantiradilar, bu esa ularda biologiyaga qiziqish uyg'otadi. Multimedia qum qutilari yordamida esa vulqon otilishi, daryo oqimi yoki shamol yo'nalishini modellashtirish mumkin – bu tabiiy jarayonlarni vizual va amaliy tarzda tushunish imkonini beradi. Shuningdek, Google Earth, YouTube platformalari va VR texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan virtual ekskursiyalar bolalarning tajribasini kengaytiradi, ularning fazoviy tasavvurlari, ekologik ong va kuzatish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bois "Tabiat bilan tanishish" fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat zamonaviy talablarga javob beradi, balki ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli texnologiyalarni integratsiyalashuviga uslubiy yondashuvlar. "Tabiat bilan tanishtirish" fanini o'qitishga raqamli texnologiyalarni samarali integratsiya qilish uchun tegishli uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Bunga o'quv dasturlarini moslashtirish, raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish, bo'lajak tarbiyachilarni ta'lim jarayonida texnologiyadan foydalanishga o'rgatish kiradi. Bolalarning jonli muloqoti va amaliy mashg'ulotlarini saqlab qolish uchun an'anaviy o'qitish usullari hamda raqamli vositalardan foydalanish o'rtasida muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak tarbiyachilarni raqamli texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash ularning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismidir. Bu nafaqat zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni o'zlashtirishni, balki ularni ta'limiy kontekstga moslashtirishni ham o'z ichiga oladi. Misol sifatida, Toshkentdagi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Maktabgacha ta'lim" fakultetida raqamli texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan "Raqamli pedagogika" nomli maxsus kurs tashkil etilgan. Ushbu kurs doirasida talabalar interfaol taqdimotlar tayyorlash, Canva va Genially kabi platformalarda dars ishlanmalarini ishlab chiqish, Google Earth yordamida virtual ekskursiyalar tashkil etish, shuningdek, Padlet, Jamboard va Kahoot kabi vositalarda mashqlar ishlab chiqish bo'yicha amaliy seminarlar o'tkazadilar.

Seminarlarda, shuningdek, talabalarga raqamli kuzatuv kundaliklarini yuritish, ekologik testlar yaratish, sun'iy intellekt asosida ishlovchi ChatGPT kabi vositalardan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan o'quv kontentlari yaratish bo'yicha topshiriqlar beriladi. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarda nafaqat texnik ko'nikmalar, balki raqamli resurslarni pedagogik maqsadlarga yo'naltira olish layoqatini ham shakllantiradi. Shuningdek, universitetda tashkil etilgan "Raqamli laboratoriya"da talabalar raqamli mikroskopl, smart doskalar va virtual reallik texnologiyalari bilan tanishib, ularni darsda qanday qo'llashni amaliy mashg'ulotlar orqali o'rganadilar. Bu kabi amaliy tajribalar pedagogik ta'limning raqamli transformatsiyasini chuqurlashtirib, bo'lajak tarbiyachilarning professional identifikatsiyasini raqamli muhitga mos shakllantirish imkonini beradi. Natijada, ular nafaqat mavjud texnologiyalardan foydalanishni, balki ularni tarbiyalanuvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga muvofiq tarzda qo'llashni ham o'rganadilar. Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy ta'limining ajralmas qismi bo'lib, bu zamonaviy raqamli vositalarni o'zlashtirish, interaktiv o'quv materiallarini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, texnologiyalarni bolalarning yosh



xususiyatlariga moslashtirish qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Raqamli infratuzilmasi rivojlangan ta'lim tashkilotlarida amaliy mashg'ulotlar, mahorat darslari va amaliyot o'tash bo'lajak tarbiyachilarning zarur ko'nikmalarni egallashiga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Tabiat bilan tanishish” fanidan o'quv faoliyatini raqamlashtirish bolalarda turli ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi: interfaol texnologiyalar kognitiv faollikni rag'batlantiradi, mantiqiy fikrlash, tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiradi; bundan tashqari, raqamli resurslardan foydalanish bolalarning zamonaviy axborot jamiyatida maktab va hayotga tayyorlanishida muhim bo'lgan axborot bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, “Tabiat bilan tanishtirish” fanida raqamlashtirish qator qiyinchilik va cheklolarga ham duch kelmoqda: 2023-yilgi rasmiy hisobotlarga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faqat 43 % ida yuqori tezlikdagi internet mavjud, 38 % ida esa internet umuman yo'q; 57 % tashkilotlarda zamonaviy raqamli texnologiyalar yetishmaydi; malakali kadrlar ta'minoti ham dolzarb – har uchinchi pedagog raqamli vositalarni to'liq o'zlashtirmagan; shuningdek, raqamli qurilmalardan foydalanishda bolalar xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlash masalalari alohida e'tibor talab qiladi.

Mazkur muammolarni hal etish kompleks yondashuvni, jumladan infratuzilmaga sarmoya kiritish, pedagog kadrlar malakasini oshirish va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Raqamlashtirish istiqbollari to'ldirilgan va virtual reallik, sun'iy intellekt hamda adaptiv ta'lim tizimlari kabi innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lib, bu yo'nalish ta'lim imkoniyatlarini kengaytirib, o'quv jarayonini shaxsiylashtirilgan va samaraliroq qiladi; biroq bunday yangiliklarni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun tizimli ilmiy tadqiqotlar, uslubiy tavsiyalar, shuningdek davlat va jamiyat ko'magini ta'minlash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, “Tabiat bilan tanishtirish” fanida o'quv faoliyatini raqamlashtirish maktabgacha ta'limni rivojlantirishning muhim yo'nalishidir: raqamli texnologiyalar integratsiyasi o'rganishni qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi hamda bolalarda asosiy kompetensiya va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi; bu maqsadlar uchun bo'lajak tarbiyachilarning raqamli savodxonligi va malakasini oshirish, zarur infratuzilmani yaratish va raqamli vositalarni joriy etishga ko'maklashadigan puxta uslubiy baza ishlab chiqish talab etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar maktabgacha yoshdagi bolalarning o'rganish motivatsiyasini oshirish, dunyoqarashi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda yuqori samarani beradi; shu bois bo'lajak tarbiyachilar an'anaviy pedagogik usullar bilan bir qatorda zamonaviy raqamli texnologiyalarni ham puxta egalashlari shart.

Shu talabdan kelib chiqib, “Tabiat bilan tanishtirish” fani kontekstida bo'lajak tarbiyachilar uchun kompleks raqamli kompetensiya modeli ishlab chiqildi: raqamli vositalarni tanlash va maqsadli qo'llash, interaktiv o'quv kontentlarini yaratish, onlayn hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, raqamli baholash va monitoring tizimlaridan foydalanish, shuningdek raqamli xavfsizlik va axloqiy me'yorlarga rioya qilish – har bir komponent mazmuni bolalarning yosh-psixologik xususiyatlari hamda pedagogning kasbiy faoliyati talablari inobatga olingan holda belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonun. – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2019-yil 16-dekabr, № 3PY–595. <https://lex.uz/docs/-4646908>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5198-son Farmoni “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. – 2017-yil 30-sentabr. <https://lex.uz/docs/-3362886>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-son Qarori “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat o'quv dasturi hamda davlat standartini tasdiqlash to'g'risida”. – 2021-yil 22-dekabr. <https://lex.uz/docs/-5179335>
4. Qo'shma qaror. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Fanlar akademiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi. – 2023-yil, Toshkent.
5. Karimova, A. Maktabgacha ta'limning me'yoriy asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
6. Qodirova, S., Jo'rayeva, G. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2020.
7. Mamatova, N. Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2023.
8. Yangi avlod darsliklari va raqamli ta'lim resurslari. – Maktabgacha ta'lim metodik to'plami. – Toshkent, 2024.
9. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – №3(5). – Toshkent: Maktabgacha ta'lim agentligi nashri.
10. Saidova, M. “Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalarni integratsiyalash masalalari.” – Pedagogik izlanishlar jurnali, 2024, №2.
11. Sultonova, D. “Bo'lajak tarbiyachilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish.” – Ta'lim va fan yangiliklari, 2023, №4.
12. Islomova, G. “Tabiat bilan tanishtirish fanini o'qitishda interfaol texnologiyalar.” – Ilmiy-amaliy tadqiqotlar jurnali, 2022, №5.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.